



---

## **PEDAGOGIK KREATIVLIKNING DOLZRBLIGI**

Akbarova Feruza Uktamjonovna

QDU tayanch doktoranti

### **Annotatsiya**

Maqolada zamonaviy dunyoda zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlash borasida yangicha yondashuvlarning pedagogik ahamiyatiga etibor qaratilgan va kadrlar tayyorlashning tizimli istiqbollari belgilashni nazarda tutgan xolda bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy fikirlashini o'stirish masalasi ilgari surilgan.

**Kali so'zlar:** Kreativlik, talaba, fikr, g'oya, pedagogika, o'qituvchi, ijodkorlik, davlat dasturi.

### **Аннотация**

В статье уделяется внимание педагогической значимости новых подходов к подготовке современных учителей в современном мире. При этом выдвигается вопрос развития творческого мышления будущих учителей с учетом определения системных перспектив подготовки кадров.

**Ключевые слова:** Креативность, студент, мысль, идея, педагогика, учитель, творчество, государственная программа.

### **Abstract**

The article focuses on the pedagogical significance of new approaches to the training of modern teachers in the modern world. At the same time, it raises the issue of developing the creative thinking of future teachers, taking into account the determination of systematic prospects for personnel training.

**Keywords:** Creativity, student, thought, idea, pedagogy, teacher, creativity, state program



## **International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30<sup>th</sup> July, 2025

Hozirgi kunda o'qitish jarayonlariga jadallik bilan kirib kelayotgan kreativ yondashuvning asosi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib barcha yoshdagi ta'lim oluvchilarning faolligiga ta'sir ko'rsadadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ham ta'lim tarbiyani yetarlicha muoffaqiyatli olib borish uchun kreativ pedagogikadan foydalanilmoqda. O'zbekiston sharoitida ham ta'lim sohasiga yangicha yondashuvlar bilan bir qatorda kreativ kompetentlikni rivojlantirish modullari ishlab chiqilmoqda. Ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlarini milliy ta'lim tarbiya bilan uyg'unlashtirish hamda zamonaviy g'oyalarga asoslanib tafukkurlarini shakillantirish o'quv jarayonlariga zamonaviy bilimlarni olib kirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Har bir millat va davlatning o'ziga hos milliy ta'limi va pedagogika tarixi mavjud. Bu tarixiy jarayonda o'qituvchilar o'zlarining ijodkorligi bilan zamonaviy ta'lim sharoitiga moslashadi. Pedagogikaga yangi yonalish tarzida kirib kelgan kreativlikning asli negizini xalq pedagogikasida korishimiz mumkin farzandlarning qanday yonalaishga qiziqishlarini kuzatish, taxlil qilib ijobiy tarafga yo'naltirish, kamchiliklarini yengillik bialn to'ldirish, vaqtida tanbex va vaqtida rag'batlantirish, ularga erkinlik yaratish, qulay muhit va kerakli sharoit yaratish orqali barkamol shaxsni tarbiyalashga erishgan onalar maktabini misol keltirishimiz mumkin. Ular farzand tarbiyasiga ijodiy yondashishlari natijasida bunday yutuqlarga erishganlar.

Kreativlikning pedagogikada ananaviy ta'limdan farqli ravishda namoyon bo'lishi o'qituvchilardagi pedagogik tafakkurning maxsulida ko'rinadi. Yangi g'oyalar va tajribalarga nisbatan ochiqlik, o'zining ijodiy qarashlariga nisbatan ishonchi, ichki imkoniyatlarini baxolay olishi, muloqotda erkinlikning rivojlanganligi o'ziga hos tarrzda bir birini toldirib turadi.

Shu maqsadda yetuk malakali o'qituvchilarni tayyorlashda xorij tajribasiga tayanib milliy ruxda o'quv adabiyotlarini yaratish maqsadga muofiqdir. Shuning uchun pedagogika yo'nalishidagi talabalarga kelajakdagi kaspiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun zamonaviy fikr g'oyalardan foydalanishda pedagogik kereativlik muhim ahamiyatga egadir. Mavzu talabalarning kaspiy maxoratlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib yetuk mutaxassis bo'lib yetishsishlariga zamin yaratadi. Ilmiy tadqiqot ishi o'z ichiga kreativ g'oyalarni qo'llash usullari va asosan



## International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30<sup>th</sup> July, 2025

o'z ijodiy ishlaridan qoniqish hamda yuqori cho'qqilarga erishish maqsadini amalga oshirishda g'oyalarni yanada takomillashtirishning eng qulay usullarini mujassamalashtiradi.

Talim oluvchilarning qiziqishlarini, fikrlarini, his tuyg'ularini, muloqot jarayonida namoyon eta olishlariga imkon yaratadigan ta'lim sharoitlarini yaratish davlat siyosti darajasiga kotarilgan barkamol avlodni tarbiyalashdagi maqsadli vazifadir. Pedagogik jarayonlarda keng ko'lamli ishlar olib borilayotganiga qaramay bir qator muammoli savollar pedagogklar oldida ochiqlicha qolmoqda. Bulardan biri qanday qilib o'zlarida va talabalarda kreativlik konikmalarini shakillantirishdan iborat. Talabalarda muayyan yutuqlarga erishishlari va ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan dars muhitini yaratish uchun hozirgi kunda bir qancha dasturlar, loyixalar amalga oshirilmoqdaki jarayon mustaqil shaxsni tarbiyalovchi, yangicha fikrlaydigan kreativ o'qituvchilarga talabni oshirmoqda. Bo'lajak o'qituvchilar talablardan kelib chiqib taklif bera oladigan ijodiy hususiyatlarga yondashgan xolda o'quv jarayonlarini loyixalashlari lozimdir. Talabalarning kaspiy faoliyatini sifatli va samarali tashkil etishga yo'naltirishda ularning shaxsiy qobiliyatlaridan tabiiy ravishda foydalanish, kreativligini ijtimoiy quvvatini oshirish pedagogik jarayonning dolzarb mavzusi hisoblanadi.

Ilg'or pedagogik g'oyalarni yartishda fikrlash jarayonini rivojlantirishga hizmat qiladigan pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish kreativ ko'nikmalarni shakillantirishning mohiyatini ochib beradi. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy konikmalarni rivojlantirgan xolda tizimlashgan yangi kreativ kompotentlikni shakillantirish mumkin. Yuqori darajadagi ilmiy pedagogik dars jarayonlarini tashkil etish va talabalardan ijodkorlikni talab qiladigan muammoli lekin qiziqarli interfaol metodlardan foydalanish zarur.

Ijodiy manbada izlanish va undan ilhomlanish deb nima nazarda tutiladi?

Dars jarayoni nimasi bilan o'ziga jalb etadi ?

Jarayondagi barcha paydo bo'ladigan savollarga, yuqoridagilar kabi o'zining ichki ijodkorligini o'rganish orqali javob topiladi. Ma'lumki ijod, ijodiylik, ijodkorlik, innovatsiya yaratish shaxsning individual sifatlariga bog'liqdir. Shuning uchun har bir o'qituvchi darsni o'zgacha usulda tushuntiradi va har bir talim



## **International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30<sup>th</sup> July, 2025

oluvchi o'zagcha usulda qabul qiladi. Darsning yutug'i esa har qanday jarayonda natijaga erishishdan iborat.

Hulosa o'rnida aytadigan bo'lsak pedagogika fanlarni o'qitishni takomillashtirish o'quvchilarning faolligini oshirish ularning ichki imkoniyatlarini yangi darajaga olib chiqish, darsga, mavzuga o'zidan kelib chiqqan xolda yondashish asosida yangi bilimlarni o'zlashtirishning o'quv uslubiy ta'minotini yaratish asosiy vazifa hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlashini va ijodiy qobiliyatlarini shakillantirish bu sohada tayyorlanayotgan kadrlarning kelajak faoliyatlarida zamonaviy fikr g'oyalardan kreativ foydalanishning potentsiali bo'lib hizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi farmoni. PF- 5847 08.10.2019. Manba: www.gov.uz
2. Abdalova S . Mustaqil ta'limni boshqarish vao'quvchilarning ijodiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kreativ texnologiyalarning o'rni. // Ta'lim menejmenti.- Toshkent,2011.
3. Bandarkova A. Kreativnaya pedagogicheskaya texnologiya forviravaniya professionalniy kulturi uchashixsiya // Nauchno-Metodicheskiy jurnal. – Moskva, 2008.
4. Raximov B.X. Bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish asoslari. Monografiya. T.: Fan. 2007.